

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KREATIV FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH

Muhammadiyaheva M.M

Ilmiy rahbar: p.f.f.d. dots

Isroilova Rayhona

Normo'minova Aziza

Bekmurotova Rahima

Qarshi DU talabalari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri - boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlik va mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish masalalari atroflicha yoritilgan. Bugungi jadal o'zgarib borayotgan axborotlashgan jamiyatda o'quvchilarga faqat tayyor bilimlarni berish yetarli emas, balki ularda muammolarga nostandart yechimlar topish va yangi g'oyalarni o'rtaga tashlash ko'nikmasini rivojlantirish hayotiy zaruratga aylangan. Shu bilan birga, kichik yoshdagi o'quvchilarning psixofiziologik xususiyatlari inobatga olingan holda, dars jarayonida qo'llaniladigan "aqliy hujum", "sinergetika", "muammoli ta'lim" va loyihaviy o'qitish kabi innovatsion metodlarning samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada o'qituvchining kreativ muhitni yaratishdagi ro'li, darsliklardagi ijodiy topshiriqlarning mazmuni va o'qituvchi shaxsini rivojlantirishdagi o'rni ilmiy asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularning kreativ salohiyatini ro'yobga chiqarish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Mazkur maqola boshlang'och sinf o'qituvchilari, pedagogika sohasi tadqiqotchilari va talabalar uchun mo'ljallangan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, tarbiya, kreativlik, fikrlash, ijodkorlik, mashq, erkinlik, metodika, tafakkur, shug'ullanish*

DEVELOPING CREATIVE THINKING IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract: *This article discusses in detail one of the most important priorities of the modern education system - the formation of creativity and independent creative thinking skills in primary school students. In today's rapidly changing information society, it is not enough to simply provide students with ready-made knowledge, but it has become a vital necessity to develop in them the skills to find non-standart solutions to problems and to put forward new ideas. At the same time, taking into account the psychophysiological characteristics of younger students, the effectiveness of innovative methods such as «brainstorming», «synergetic» «problem learning» and project-based learning used in the lesson process was analysed. The article also scientifically substantiates the role of the teacher in creating a creative environment, the content of creative tasks in textbooks and their role in developing the teachers personality. As a*

result of the research, methodological recomeditons were developet to increas students, interest ni the lesson and realize their creative potential. This article is intent intended for primarey school teachers, researchers in the field of pedagogy and students

Keywords: *education, upbringing, creativity, creative thinking, innovation, practice, freedom, methodology, cognition, engagement.*

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri - har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, ijodkor shaxsni tarbiyalashdir. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning tafakkuri, dunyoqarashi va shaxsiy sifatlari shakllanishida muhim o'rin tutadi. Shu bois boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni shakllantirish dolzarb pedagogik masalalardan biri hisoblanadi. Kreativ fikrlash - bu shaxsning yangicha g'oyalar yaratish, noodatiy yechimlar topish va mavjud muammolarga turli nuqtai nazaridan yondashish qobiliyatidir. Boshlang'ich sinf davri esa bolalarning tasavvuri, qiziqishi va faolligi yuqori bo'lgan davr hisoblanadi.

Kreativ fikrlash tushunchasi va uning ahamiyati

Kreativlik (lotincha creare- "yaratmoq")- bu yangi g'oya, original fikr yoki noodatiy yechim yaratish qobiliyati degan ma'noni anglatadi. Pedagogik va psixologik tadqiqotlarda kreativlik shaxsning ijodiy faoliyatga moyilligi, mustaqil qaror qabul qilish va yangilik yaratish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Kreativ fikrlash quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

- erkin va mustaqil tafakkur;
- muammoni turli yo'llar bilan hal qila olish;
- tasavvurning kengligi;
- g'oyalar ko'pligi;
- noodatiy fikrlash [1,96]

Boshlang'ich sinfda kreativ fikrlashni rivojlantirish metodlari

Boshlang'ich ta'lim jarayonida kreativ fikrlashni shakllantirish uchun quyidagi metod va usullardan foydalanish samarali hisoblanadi.

1. Muammoli ta'lim metodi

O'quvchilarga tayyor bilim berish o'rniga, muammoli vaziyat yaratish orqali ularni izlanishga undash muhimdir. Masalan: matematika darsida bir masalani turli usullarda yechish taklif etilishi o'quvchilarning tafakkurini faollashtiradi.

2. Aqliy hujum

Bu metod o'quvchilarning erkin fikr bildirishiga imkon yaratadi. Har qanday g'oya qadrlanishi muhitni erkin va ijodiy qiladi.

3. Rol o'ynash va dramatisatsiya

Ona tili va o'qish darslarida matn mazmunini sahnalashtirish bolalarning tasavvurlarini kengaytiradi va ijodiy yondashuvini rivojlantiradi.

4. Loyihaviy faoliyat

Kichik loyihalar orqali o'quvchilar mustaqil izlanadi, ma'lumot to'playdi va natija chiqaradi. Bu jarayon kreativ tafakkurni rivojlantiradi.

5. Interfaol o'yinlar [1, 200]

Didaktik o'yinlar, mantiqiy topshiriqlar va konstruktorlik faoliyati bolalarda yangicha fikrlashni shakllantiradi.

6. Klaster metodi

1) Mavzu markazga yoziladi

2) Atrofga shu mavzuga bog'liq g'oyalar chiqariladi

3) Bog'lanishlar chiziqlar bilan ko'rsatiladi

Kreativ muhit yaratishning pedagogik shartlari

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi quyidagi shart-sharoitlarni yaratish zarur:

- erkin va do'stona psixologik muhit;
- o'quvchi fikrini hurmat qilish;
- xatolarga ijobiy munosabat;
- rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash;
- mustaqil ishlash imkoniyatini berish;

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'proq o'yin, tasviriy faoliyat va muloqot orqali bilim oladilar. Agar dars jarayoni faqat tayyor ma'lumotni yod olishga asoslangan bo'lsa, bolalarning ijodiy salohiyati yetarli darajada rivojlanmaydi. [1, 70]

Muhokama va natija

Boshlang'ich ta'lim jarayonida kreativ fikrlashni shakllantirish masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy ta'lim tizimi nafaqat bilim berishni, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlashni, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish va yangicha yondashuvni rivojlantirishni talab qiladi. Ayniqsa, kichik maktab yoshidagi bolalarda tasavvur, fantaziya va obrazli tafakkur kuchli bo'lgani sababli kreativ metodlardan foydalanish yuqori samara beradi.

Tadqiqot va pedagogik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy, faqat tushuntirishga asoslangan darslarda o'quvchilar ko'proq tayyor ma'lumotni qabul qiluvchi rolda bo'ladi. Natijada ularning mustaqil fikr yuritish faolligi cheklanadi. Aksincha, interfaol va muammoli metodlar qo'llanilganda o'quvchi dars jarayonining faol subyektiga aylanadi.

Masalan, "aqliy hujum" yoki klaster metodlari o'quvchilarning erkin fikr bildirishiga imkon yaratadi. Bu jarayonda har bir bola o'z g'oyasini aytishga harakat qiladi va o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi. Rolli o'yinlar esa

o'quvchilarning tasavvurini boyitib, vaziyatni turli nuqtai nazaridan ko'rib chiqishga o'rgatadi. Muammoli ta'lim metodlari esa sabab-oqibat bog'lanishlarini tahlil qilish ko'nikmasini shakllantiradi. [1, 220]

Bugungi kunda an'anaviy o'qitish usullari o'rnini zamonaviy va interfaol metodlar egallamoqda. Ammo ayrim hollarda o'qituvchilar hali ham faqat tayyor bilim berishga urg'u berishadi, bu esa o'quvchilarning ijodiy fikrlashini cheklaydi. Kreativlikni

rivojlantirish o'qituvchi o'quvchini erkin fikr bildirishga undashi, xatolardan qo'rqmaslik muhitini yaratishi, har bir fikrni qadrlashi kerak. Shuningdek ota onalar ham bolalarning qiziqishlarini qo'llab quvvatlashi muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf bolaning tafakkuri tasavvuri va shaxsiy fazilatlari shakllanadigan eng muhim bosqichdir. Aynan shu davrda berilgan ta'lim uning keyingi rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi. Psixologik nuqtai nazardan, kreativlik tafakkurning eng yuqori shakllaridan biri bo'lib, u mustaqillik, moslashuvchanlik va faollik bilan chambarchas bog'liq.

Xulosa

Ma'lumotlarni kuzatish natijasida quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

1) Kreativlikni rivojlantirish o'quvchilarning mustaqil fikrlashini yaxshilaydi, muammolarga noodatiy yechim topa olish va ijodiy yondashuvini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2) Ta'lim jarayonida interfaol metodlar o'yinlar va ijodiy topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarning qiziqishi oshirib, ularning intellektual salohiyatini rivojlantiradi.

3) Kreativlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlarni keng qo'llash ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi

O'quvchilarning kreativ fikrlashiga to'sqinlik qiluvchi omillar:

1. Faqat yodlashga asoslangan darslar o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashini cheklaydi

2. O'quvchi xato qilishdan qo'qsa, yangi g'oyalarni ilgari surishga jur'at etmaydi

3. Erkin fikr bildirishga imkon berilmaganda kreativlik pasayadi

4. Standart savol va mashqlar o'quvchining tasavvur doirasini kengaytirmaydi

5. Boshqalar fikridan cho'chish o'quvchilar o'z g'oyasini yashirishga majbur qiladi

6. Kitoblar, o'yinlar, texnologiyalar yoki ijodiy muhitning yo'qligi kreativlikni cheklaydi

7. Tezkor natijaga qaratilgan darslar chuqur va ijodiy fikrlashga imkon bermaydi

Ushbu omillarni kamaytirish orqali o'quvchilarda erkin fikrlash, yangilik yaratish va ijodiy yondashuvni rivojlantirish mumkin. [1, 274]

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xodjaev B.X. "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" T.: Sano-Standart, 2017.

2. Pedagogika. // M.Toxtadjaevaning umumiy tahriri ostida T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010

3. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. "Pedagogika nazariyasi va tarixi". T.: Fan va texnologiyalar. 2010

4. Hoshimov.K, Nishonova.S va boshqalar Pedagogika. T.: Fan va texnologiyalar 2010.

5. N. Saidahmedov “Pedagogik mahorat”

6. N. Hoshimov “Pedagogik nazariya va tarixi”